XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 30-noyabr VI-117-05-10-149-K/24 Bekobod shahar

Bekobod shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari shahar kengashi,

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli hamda Respublika aerogodeziya markazining 2024-yil 3-iyuldagi Bekobod shahri hokimligiga yuborilgan 01-1192-sonli xati orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Bekobod shahar maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasining 2024-yil 9- sentabrdagi 6-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Bekobod shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Bekobod shahri bilan chegaradosh boʻlgan Bekobod tumani oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining shahar boʻlimi boshligʻiga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



BABAYEV NASRULLA NURILLAYEVICH

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2024-yil 30-noyabrdagi
VI-117-05-10-149-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Bekobod shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Sirdaryo viloyati hamda Bekobod shahri, Bekobod tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Doʻstlik kanalining gʻarb tomonida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°13'26,916", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°09'30,770").*

A dan B gacha Bekobod shahar yerlari bilan 1 - 18 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 124 metr masofada Doʻstlik kanalni kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'28,829", sharqiy uzoqlik 69°09'35,376").*

2-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Doʻstlik kanalning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 3961 metr masofada avtomobil yoʻli koʻprigi boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'09,813", sharqiy uzoqlik 69°12'19,690").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, Doʻstlik kanaliga tutashadi va sharqiy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1167 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'11,779", sharqiy uzoqlik 69°13'08,830").*

4-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 79 metr masofada Doʻstlik kanalini, R-26 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 274 metr, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 226 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 35 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, tomorqa devori boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'27,308", sharqiy uzoqlik 69°13'20,745").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 93 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'29,078", sharqiy uzoqlik 69°13'23,406").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab shimoliy yoʻnalishda 78 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 45 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'31,991", sharqiy uzoqlik 69°13'21,100").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 120 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'35,308", sharqiy uzoqlik 69°13'20,066").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 135 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 14 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 59 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 137 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'32,337", sharqiy uzoqlik 69°13'30,439").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi yoʻldan tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 57 metr, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 115 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 292 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'33,287", sharqiy uzoqlik 69°13'45,131").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 120 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 14 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi va devor boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 123 metr masofada Sirdaryo daryosi qirgʻogʻiga oʻtadi va daryo suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi boʻylab umumiy sharqiy yoʻnalishda 897 metr masofani oʻtib, daryosi boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'44,668", sharqiy uzoqlik 69°14'20,720").*

11-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 222 metr masofada Sirdaryo daryosini kesib oʻtib dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 451 metr masofani oʻtib, Avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'59,445", sharqiy uzoqlik 69°14'43,960").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi Avtomobil yoʻlini kesib oʻtib tomorqa devoriga tutashadi va devor boʻylab umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 424 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 13 metr masofani oʻtib, tomorqa devorida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'8,314", sharqiy uzoqlik 69°14'57,569").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 203 metr masofada ariqqa tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 163 metr masofada Xasyoz kanalini, dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'10,852", sharqiy uzoqlik 69°15'10,677").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1050 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 105 metr, soʻng qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, beton ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1880 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°15'37,145", sharqiy uzoqlik 69°14'31,436").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 332 metr masofada R-20 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, keyin qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2253 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'55,706", sharqiy uzoqlik 69°15'58,293").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 322 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy

yoʻnalishda 395 metr masofada tomorqa chegarasiga oʻtadi, soʻng chegara boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 342 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°15'08,286", sharqiy uzoqlik 69°16'17,825").*

17-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy yoʻnalishda 153 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 290 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 176 metr masofani oʻtib, soʻng toʻgʻri chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 63 metr masofani oʻtib, Tojikiston Respublikasi hamda Bekobod shahri, Bekobod tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, zovur boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°15'10,672", sharqiy uzoqlik 69°16'40,298").*

B dan D gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 18 - 19 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

18-nuqtadan 19-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 40°12'40,521", sharqiy uzoqlik 69°10'16,699".*

D dan A gacha Sirdaryo viloyati yerlari bilan 19 - 1 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

19 - nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 119 metr masofada Doʻstlik kanalini kesib oʻtadi, keyin kanalning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hiosbga olgan holda 974 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy yoʻnalishda 180 metr masofada avtomobil yoʻlini, temir yoʻlni kesib oʻtib kanal boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'06,157", sharqiy uzoqlik 69°09' 41,778").*

20 - nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali sharqiy yoʻnalishda 26 metr masofada Doʻstlik kanalidan tomorqa toʻsigʻiga tutashadi va toʻsiq boʻylab shimoliy yoʻnalishda 49 metr masofani oʻtib “Farhod GES” unitar korxonasi devoriga oʻtadi va devor, ariq boʻylab sharqiy yoʻnalishda 45 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi, soʻng qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni boʻylab shimoliy yoʻnalishda 10 metr masofani oʻtadi, keyin qishloq ichki yoʻlidan ariqqa oʻtib, ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 79 metr masofani oʻtib, piyodalar yoʻlakchasiga oʻtadi va yoʻlakchaning gʻarb tomoni boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 17 metr masofani oʻtadi, keyin toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 29 metr masofada Shirin shahriga olib kiruvchi yoʻlni kesib oʻtib devor boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'08,104", sharqiy uzoqlik 69°09'49,321").*

21 – nuqtadan chegara chizigʻi devordan tomorqa chegarasiga oʻtadi va tomorqa chegarasi boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 80 metr masofada devorga tutashadi, keyin devor boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda 116 metr masofada avtomobil yoʻliga oʻtadi, soʻng yoʻl boʻylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 154 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi, soʻngra yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 50 metr masofani otib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi keyin dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 101 metr masofani oʻtib, “Farhod GES” unitar korxonasi devorida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'21,123", sharqiy uzoqlik 69°09'50,099").*

22 – nuqtadan chegara chizigʻi “Farhod GES” unitar korxonasi devori boʻylab shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 253 metr masofani oʻtib, devor burilishida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'26,012", sharqiy uzoqlik 69°09'41,514").*

23 – nuqtadan chegara chizigʻi “Farhod GES” unitar korxonasi devori boʻylab janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 107 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy yoʻnalishda 117 metr masofada Doʻstlik kanalini kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'22,617", sharqiy uzoqlik 69°09'34,056").*

24 – nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 155 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'26,916", sharqiy uzoqlik 69°09'30,770").*

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2024-yil 30-noyabrdagi
VI-117-05-10-149-K/24 -son qaroriga
2-ilova

